




## AGRAR SOHADA INVESTISION FAOLIYATNI MOLİYALASHTIRISH

Namangan davlat texnika universiteti  
**Yusufjonov Ravshanbek Rustamjon o'g'li**

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda agrar sohaning roli beqiyosdir. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda qishloq hududlarida bandlik darajasini yuksaltirishda qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, agrar sohada investitsion faoliyatni jadallashtirish va uni samarali moliyalashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa, avvalo, agrar sohadagi investitsiyaviy jarayonlarning samarali moliyalashtirilishiga bevosita bog'liqdir. Xususan, fermer xo'jaliklari, agroklastlar va boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan zamonaviy texnika, urug'lik, o'g'itlar, sug'orish tizimlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun moliyaviy manbalarning mavjudligi va ularning oqilona taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi besh yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investisiya va kreditlar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 3,2 martaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Xususan, «2023-yilda 187,9 trln. so'm (dollar ekvivalentida 16,0 mlrd. AQSh doll.) yoki 2022-yilga nisbatan 152,8 foiz asosiy kapitalga xorijiy investisiya va kreditlar o'zlashtirildi. Xorijiy investisiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalardagi ulushi 53,4 foizni tashkil etdi»<sup>1</sup>. Bir vaqtning o'zida O'zbekistonning YaIM hajmi 2023-yilda 1066,5 trln. so'mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 6,0 foizga o'sdi, 2019-yilga nisbatan esa 2 barobarga o'sgan (1-rasm).


<sup>1</sup> [4.INVESTISIYA VA QURILISH ISHLARI \(7\).pdf](#).



**1-rasm. Yalpi ichki mahsulot va xorijiy investisiya va kreditlar hajmi dinamikasi (trln. so'mda) <sup>2</sup>**

Biroq, mamlakatimizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investisiya va kreditlarning agrar soha taraqqiyotidagi roli sezilarli darajada emas. 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar 84,3 trln. so'm yoki jamiga nisbatan 50,6 foizni, boshqa investisiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 82,4 trln. so'mni yoki jamiga nisbatan 49,4 foizni tashkil etgan.

Agrar sohada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar oqimining salmog'i bo'yicha O'zbekiston boshqa mamlakatlardan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligiga xorijiy investisiyalarni jalb qilish bo'yicha amalda dunyoda yetakchi bo'lgan Indoneziyada 2019-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning umumiy hajmida qishloq xo'jaligining ulushi 7,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 0,05 foizga teng bo'lgan (-rasm).



**2-rasm. 2019-yilda turli mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning umumiy hajmida agrar sohaning ulushi (foizda) <sup>3</sup>**

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>3</sup> <https://www.fao.org/home/en/>; [https://halykfinance.kz/download/files/analytics/AC\\_agriculture\\_development.pdf](https://halykfinance.kz/download/files/analytics/AC_agriculture_development.pdf).

Shuningdek, Norvegiya, Yangi Zelandiya va Braziliya mamlakatlarida agrar sohaga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmi O'zbekiston va Qozog'istonga qaraganda bir necha marta yuqoridir. Bizning fikrimizcha, agrar sohada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmining bunday past darajada bo'lishining muhim sabablaridan biri xorijliklarga yerlarni sotish bilan bog'liq qonunchilikning takomillashtirilmaganligi, shu munosabat bilan xorijiy korxonalar qishloq xo'jaligi yerlariga egalik qila olmasligi va har doim tegishli huquqlarga ega bo'lgan mahalliy hamkorlarga tayanishi zarur. Bundan tashqari, narxlarni tartibga solish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import va eksport qilishda davlatning roli, qishloq infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligi, korrupsiya bilan bog'liq omillar ham mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston agrar sohasida xorijdan olib kelinishi zarur bo'lgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnika-texnologiyalari va nou-xaularning surunkali tanqisligi kuzatilmoqda. Bunday holat agrar sohaga to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita investisiyalarni jalb qilish ishlari qoniqarli ahvolda emasligini ko'rsatadi va agrar sohada faoliyat yurituvchi qishloq xo'jaligi korxonalari uchun chet eldan zamonaviy, intensiv qishloq xo'jaligi texnikalari, agregatlari, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni (asosiy kapitalni yangilashga) olib kelishlarida moliyaviy imtiyozlar berilishi zarurligini taqozo etadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda agrar soha davlat tomonidan faol moliyaviy (subsidiya, kompensasiya, kafillik) qo'llab-quvvatlanadi, ularda turli soliq va bojxona imtiyozlari amal qiladi. Masalan, «Rossiya Federasiyasiga Armaniston, Belarus va Qozog'istondan olib kelinadigan qishloq xo'jaligi texnikalari bojxona boji va yig'imidan, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan»<sup>4</sup>. Bunday imtiyoz Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarining barchasida amal qiladi. Shu munosabat bilan agrar sohaga bevosita investisiyalarni jalb qilishni faollashtirish asosida zamonaviy va intensiv texnika-texnologiyalar bilan ta'minlashni rag'batlantirish uchun qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan xorijdan olib kelinadigan yangi texnikalar va agregatlar, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish zarur. Bu esa agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zarur agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, ushbu sohada qishloq xo'jaligi texnikasiga bo'lgan talabning qondirilishi, qishloq xo'jaligi korxonalarini zamonaviy va intensiv texnikalar bilan ta'minlashni rag'batlantirish tizimining takomillashuviga olib keladi. Shuningdek, agrar sohada kichik ishlab chiqaruvchilarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida texnikalarni, xususan, motokultivator va minitraktorlarni chetdan olib kirishda bojxona bojining nol stavkalarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Bunday holat mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va ularning eksportini oshirish, ekin yerlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, istiqbolda yer egalarining daromadlarini ko'paytirish imkonini beradi.

Agrar sohada investitsion faoliyatni moliyalashtirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, oziq-ovqat mustaqilligi hamda qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi yetakchi

<sup>4</sup> [Таможенное оформление сельхозтехники при ввозе в Россию \(ucsol.ru\)](http://ucsol.ru).

tarmoqlardan biri bo'lib, uning innovatsion rivojlanishi, texnologik yangilanishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshirilishi bevosita investitsion resurslarga va ularning samarali moliyalashtirilishiga bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, agrar sohani moliyalashtirishda barqaror, ochiq va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali bu tarmoqda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.